

Jo'rayeva Sarvinoz Ulug'bekovna

- Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Gumanitar fanlar kafedrası , Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti o'zga tilli guruhlarda rus tili yo'nalishi (o'zbek guruhlari uchun) 212-guruh talabasi

Annatatsiya: Mazkur maqolada “Yo'qotilgan avlod” (fransuzcha *Génération perdue*, inglizcha *Lost Generation*) — Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'ida paydo bo'lgan ibora bo'lib, bir qator yozuvchilarning ijodida o'z aksini topgan. “Yo'qotilgan avlod” deganda 18 yoshida urushga ketib, odamlarni o'ldirishga jalb qilinganlar tushunilgan. Urushdan keyin ular odatiy hayotga moslashishlari qiyin kechgan. Ularning ko'pchiligi o'z joniga qasd qilgan bo'lsa, boshqalari aqldan ozgan edi.

Oliy ma'lumotga ega bo'lmagan oilalarning yoshlari universitetga o'qishga kirgach, o'zlarining yangi muhitida - akademikdan tortib, ijtimoiy-psixologikgacha ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirishadi. Ularning sabablari orasida madaniy ma'lumot va maktabga tayyorgarlikning etarli emasligi, universitetda ta'lim beradigan imkoniyatlarni noto'g'ri tushunish, universitetni "tasodifiy" tanlash, akademik "o'yin qoidalari" ni bilmaslik va yangi jamiyatda muloqot qilishda qiyinchiliklar bor.

Kalit so'zlar: *Yo'qotilgan avlod, yevropadagi eng dolzarb muammolar, integratsiyalashuv, oktyabr inqilobi, ulug' vatan urushi, Germaniya tajribasi.*

Asosiy qism: Bugungi kunda dunyoda insoniyatning butun tarixi davomida hozirgi avlod o'qimishli ekani tan olinsa-da, 113 million nafardan ortiq bola maktabga bormaydi. Zamonaviy dunyoda 130 million o'smirning savodsiz ekani ma'lum qilinmoqda.

So'nggi vaqtlarda ta'lim olishdan bebahra, ish topa olmayotgan yoshlar haqida ko'p gapirilmoqda. Germaniya kansleri Angela Merkel 2013 yilda The Guardian nashriga bergan intervyusida yoshlar o'rtasidagi ishsizlikni

“Yevropadagi eng dolzarb muammosi” sifatida ta'riflagandi. U Yevropa mamlakatlarining hukumatlari “Yo‘qotilgan avlod” paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida Germaniya tajribasidan foydalanishi lozimligini ta'kidlagandi. Germaniya tajribasi shundan iboratki, bu mamlakatda talabalar bir vaqtining o‘zida ta'lim oladi va ish bilan mashg‘ul bo‘ladi. “Yo‘qotilgan avlod” (fransuzcha *Génération perdue*, inglizcha *Lost Generation*) — Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig‘ida paydo bo‘lgan ibora bo‘lib, bir qator yozuvchilarning ijodida o‘z aksini topgan. “Yo‘qotilgan avlod” deganda 18 yoshida urushga ketib, odamlarni o‘ldirishga jalb qilinganlar tushunilgan. Urushdan keyin ular odatiy hayotga moslashishlari qiyin kechgan. Ularning ko‘pchiligi o‘z joniga qasd qilgan bo‘lsa, boshqalari aqldan ozgan edi. Ibra muallifi Gertrude Stayn ekani aytiladi.

Inqirozning yana bir sababi rivojlangan davlatlarda ish beruvchilar yoshi kattalarni emas balki yoshlarni ishdan bo‘shatishni afzal ko‘rishadi.

Oliy ma'lumotga ega bo‘lmagan oilalarning yoshlari universitetga o‘qishga kimgach, o‘zlarining yangi muhitida - akademikdan tortib, ijtimoiy-psixologikgacha ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechirishadi. Ularning sabablari orasida madaniy ma'lumot va maktabga tayyorgarlikning etarli emasligi, universitetda ta'lim beradigan imkoniyatlarni noto‘g‘ri tushunish, universitetni "tasodifiy" tanlash, akademik "o‘yin qoidalari" ni bilmaslik va yangi jamiyatda muloqot qilishda qiyinchiliklar bor. Ammo g‘ayrioddiy sharoitlarga moslashmasangiz, o‘qishni kechiktirish yoki o‘qishni tark etish xavfi mavjud. Buning oldini olish uchun birinchi avlod talabalarining universitet muhitiga integratsiyalashuviga yordam berish muhimdir. "Birinchi avlod talabalari" ko‘p qiyinchiliklar tufayli o‘qishlarini to‘xtatadilar yoki kechiktiradilar. Va ba‘zilari hatto universitetdan chiqarib yuboriladi. Biroq, agar ular o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlansa va o‘z o‘rnini bosa olsa, buning oldini olish mumkin edi. Bunday talabalar ko‘p, shuning uchun ularga yordam berish dolzarb masaladir.

Birinchi avlod talabalari talaba bo‘lishidan oldin ham bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishgan. Misol uchun abituriyent bo‘lganida. Abituriyent o‘qishga qiziqadi, ammo oilasi bunga qarshi, chunki ular o‘qishdan emas ,

o‘zlarining hunarlaridan ko‘p daromad tushadi deb o‘ylashadi. Agarda qarshilik qilishmasa, moddiy tarafdin muammolari bo‘ladi . Xullas, mana shuncha ziddiyalarga qarshi o‘quvchi o‘z ustida ishlay boshlaydi . Va nihoyat abituriyent talaba bo‘ladi. Qaniydi shu bilan hayoti o‘z o‘rniga tushib qolsa! Oilasidagi, maktabdagi muhit universitet muhitidan tubdan farq qiladi. Birinchi avlod talabasi universitet muhitiga o‘rganishga majbur. Universitet muhiti deganda birinchi navbatda xulq atvori, bilimi, so‘zlashish odobi, kiyinish madaniyati va hokazolarni tushunishimiz mumkin.

Talaba bo‘lishni orzu qilgan maktab o‘quvchilari orzu qilishni emas, maqsad qo‘yishni o‘rganishlari kerak. Keyin mana shu maqsad bo‘yicha ish ko‘rishlari lozim. Agarda bo‘lajak birinchi avlod talabasi til sohasini tanlamoqchi bo‘lsa, u juda ko‘p izlanishi, o‘qishi shart. Ha u Oliy o‘quv yurtiga bir amallab kirdi ham deylik, undan keyin yana muammolar bo‘ladi. Masalan, moddiy ehtiyojga bo‘lgan muammosi, til bilmaslik muammosi, begona muhit muammosi va boshqa muammolar. Mana shu muammolar tufayli talaba o‘zining bor iqtidorini tashqariga chiqara olmaydi. Mana shu holatlar tufayli boshqa talabalardan orqada qola boshlaydi. Biz til bilmaslik degan muammo haqida to‘xtaldik. U talabalar nima sababdan oliygohga kira turib o‘z yo‘nalishlari bo‘lgan tilda erkin so‘zlasha olmaydi degan savol tug‘ilishi tabiiy hol. Bularning barchasiga javob qilib maktab davrida yaxshi o‘qimaganliklari hamda ota-onasi tomonidan o‘qishga e’tibor berilmaganligidadir.

Ba’zi bir birinchi avlod talabalari bo‘lmagan talabalar til bilmasada, ular birinchi avlod talabalaridan ancha yuqori ball olishadi. Buning sababi ular akasi yoki opasidan turli xildagi taktikalarini o‘rgangan bo‘lishadi. Ya’ni bilgan narsasini tortinmay yuzaga chiqarib berishi, mustaqil ishlarni boshqa kursdoshlariga qaraganda oldinroq topshirishga urinishi, tadbirlarda faol qatnashishi kabilar. Vaholanki bularning barchasin talabaning o‘qituvchi bilan yaxshigina muloqotda bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Qovun qovundan rang oladi deganlaridek, birinchi avlod talabalari ham o‘sha talabalardan o‘rnak olishadi. Ba’zi bir talabalar tadbirlardan, tashkiliy ishlardan o‘zlarini olib qochishadi. Buning sababi o‘sha tashkiliy ishlarga ketgan vaqtini o‘qishga sarflashsa, o‘ziga

pilus bo‘ladi deb o‘ylashadi. To‘g‘ri buni yomon fikr deb ham bo‘lmaydi, ammo bizning miyamiz doimiy ravishda o‘qigan narsalarimizning hammasini ham qabul qila olmaydi. Miyaga albatta dam berishimiz lozim.

Xulosa: Oliy ta‘limdagi uzilishlar katta ijtimoiy tizimdagi uzilishga o‘xshaydi. Bunga misol qilib, Birinchi va Ikkinchi jahon urushi oralig‘ida birinchi avlod talabalari o‘qishga ketib, odamlarni o‘ldirishga jalb qilingan. Ularning ko‘pchiligi o‘z joniga qasd qilgan bo‘lsa, boshqalari aqldan ozgan edi.

Shunday qilib, birinchi avlod talabalarining zaifligini kamaytirish uchun ularning madaniy va ijtimoiy kamchiliklarini bartaraf qilish kerak.

Adabiyotlar:

1. AQSh Ta'lim vazirligi. (1998). Ta'lim bo'yicha milliy statistika markazi [NCES]. "Birinchi avlod talabalari: ota-onalari hech qachon o'rta maktabdan keyingi ta'limga kirmagan magistrantlar."

2. Межкультурная коммуникация-как необходимый процесс глобализации // А.Арипова, 2019.

3. Toshqulov A. Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar: 2021 yil natijalari va istiqboldagi rejalar. Edu.uz December 28,2021 <https://telegra.ph/Hisobot-12-28.30.12.2021>.

4. O'zbekiston Respublikasining qonuni Ta'lim to'g'risida. 2020 yil 23 sentabr. O'RQ-637-son